TALABALARNING ILMIY TADQIQOTCHILIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Mamadaliyeva Nargiza Ulug‘bekovna
Namangan davlat pedagogika instituti
nmamadaliyeva15@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik asoslari nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 28.04.2025 yildagi PF-73-sonli Farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar tizimini takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2026-yil 10-apreldagi PF-58-son Farmonlari tahlil qilindi. Shuningdek, yevropa pedagog olimlarining qarashlari va osiyo pedagog olimlarining tadqiqot ishlari orqali ilmiy tadqiqotchilikni rivojlantirishning pedagogik asoslari yoritilib berildi.*

Kalit so‘zlar: *ilmiy-tadqiqotchilik kompetensiyasi, tadqiqot kompetensiyasi, oliy ta’lim, talaba, ilmiy faoliyat, tadqiqotga asoslangan ta’lim, ilmiy mentorlik, mustaqil fikrlash, refleksiya, tadqiqotchilik ko‘nikmalari.*

Abstract: *This article analyzes the pedagogical foundations of developing students’ research competence in higher education institutions from theoretical and practical perspectives. The Presidential Decree of the Republic of Uzbekistan “On Measures to Further Improve the System of Teacher Training” No. PF-73 dated April 28, 2025, and the Presidential Decree of the Republic of Uzbekistan “On Additional Measures to Improve the System of Higher Education, Science and Innovation” No. PF-58 dated April 10, 2026, were analyzed. In addition, the pedagogical foundations for developing research competence were highlighted through the views of European pedagogical scholars and the research works of Asian pedagogical scholars.*

Keywords: *research competence, research competency, higher education, student, scientific activity, research-based education, academic mentoring, independent thinking, reflection, research skills.*

Аннотация: *В данной статье теоретически и практически проанализированы педагогические основы развития научно-исследовательской компетентности студентов в высших образовательных*

учреждениях. Были проанализированы Указ Президента Республики Узбекистан «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы подготовки педагогических кадров» № ПФ-73 от 28 апреля 2025 года и Указ Президента Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по совершенствованию системы высшего образования, науки и инноваций» № ПФ-58 от 10 апреля 2026 года. Кроме того, педагогические основы развития научно-исследовательской деятельности были освещены посредством взглядов европейских ученых-педагогов и исследовательских работ азиатских ученых-педагогов.

Ключевые слова: *научно-исследовательская компетентность, исследовательская компетентность, высшее образование, студент, научная деятельность, обучение на основе исследования, научное наставничество, самостоятельное мышление, рефлексия, исследовательские навыки.*

Kirish

Bugungi oliy ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri nafaqat muayyan kasbiy bilimlarga ega, balki mustaqil fikrlaydigan, muammoni ilmiy tahlil qila oladigan, dalillarga asoslangan xulosa chiqaradigan va yangi bilim yaratishga qodir mutaxassislarni tayyorlashdan iborat. Ilm-fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi, axborot hajmining keskin ortishi hamda mehnat bozorida yangi kompetensiyalarga bo‘lgan ehtiyojning kuchayishi oliy ta’lim mazmunini tadqiqotga yo‘naltirilgan holda tashkil etishni taqozo etmoqda. Shu nuqtayi nazardan talabaning tayyor axborotni o‘zlashtirishi bilan bir qatorda, axborotni izlash, uning ishonchliligini baholash, ilmiy manbalarni taqqoslash, muammoni shakllantirish, tadqiqot metodlarini tanlash va olingan natijalarni asoslash qobiliyatlarini rivojlantirish muhim pedagogik vazifaga aylanmoqda. Shu nuqtayi nazardan, talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik asoslarini aniqlash, uning tarkibiy qismlari va rivojlanish bosqichlarini belgilash, tadqiqotga asoslangan ta’lim, ilmiy mentorlik, mustaqil izlanish, motivatsiya va refleksiyani yagona pedagogik tizim sifatida tashkil etish masalalari dolzarb ilmiy-pedagogik muammolardan biri hisoblanadi.

Asosiy qism

Ilmiy-tadqiqotchilik kompetensiyasini oddiy tadqiqot ko‘nikmasi bilan tenglashtirish mumkin emas. Ko‘nikma ma’lum bir faoliyatni bajarish qobiliyatini bildirsa, kompetensiya bilim, ko‘nikma, tajriba, motivatsiya, qadriyat va refleksiyaning integratsiyasini anglatadi. Shu sababli talabaning ilmiy-tadqiqotchilik kompetensiyasi nafaqat “tadqiqot metodlarini bilish”, balki mazkur bilimlarni real ilmiy muammoni hal qilish jarayonida mustaqil qo‘llay olish bilan

tavsiflanadi. J. Brunerning “The Process of Education” asarida ta’lim mazmunini ta’lim oluvchining intellektual rivojlanishiga mos ravishda bosqichma-bosqich murakkablashtirish g‘oyasi ilgari suriladi [3]. J. Brunerning spiral o‘quv dasturi konsepsiyasiga ko‘ra, ta’lim mazmuni ta’lim oluvchining intellektual rivojlanish darajasiga mos ravishda bosqichma-bosqich olib borilishiga alohida to’xtalib o’tilgan bo’lib, buni soddadan murakkabga qadar olib borilishi yoritilgan. Mazkur yondashuvni talabalarda ilmiy-tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirishga tatbiq etgan holda, ushbu kompetensiyani ilmiy axborotni izlash, manbalarni tanqidiy tahlil qilish, tadqiqot muammosini shakllantirish, tadqiqot metodini tanlash, empirik tadqiqot olib borish hamda ilmiy natijalarni maqola va taqdimot shaklida taqdim etish kabi bosqichlarda izchil shakllantirish mumkin.

John Deweyning qarashlari quyidagicha yoritiladi:

“All thinking is research, and all research is native, original ” ma’nosi “Har qanday fikrlash tadqiqotdir va har bir tadqiqot uni amalga oshirayotgan shaxs uchun o‘ziga xos, originaldir.” [4]

Shu nuqtayi nazardan Deweyning yondashuvi talabaning ilmiy-tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirishda muammoli ta’lim, inquiry-based learning va refleksiv ta’lim uchun muhim metodologik asos bo‘la oladi. Talabaga tayyor savol va tayyor javob berish o‘rniga, uni real pedagogik vaziyat bilan to‘qnash keltirish, muammoni mustaqil aniqlash va dalillarga asoslangan yechim izlashga yo‘naltirish tadqiqotchilik faoliyatining tabiiy shakllanishiga xizmat qiladi.

Osiyo oliy ta’lim tizimlarida ham talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik savodxonligini rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Xitoyda Zhao va Huang tomonidan olib borilgan empirik tadqiqot 345 nafar magistr talabani qamrab olgan. Tadqiqotda talabalarning research literacy ko‘rsatkichlariga avtonom motivatsiya va ilmiy rahbarning qo‘llab-quvvatlashi sezilarli ta’sir ko‘rsatgani aniqlangan. Bunda nazoratga asoslangan motivatsiyaning ta’siri statistik jihatdan ahamiyatli bo‘lmagan [7]. Bu natija pedagogik jihatdan muhim xulosani beradi: talabani ilmiy tadqiqotga faqat baho, majburiyat yoki nazorat orqali jalb qilish yetarli emas. Talaba tadqiqotning mazmuni va ahamiyatini anglab, unda ichki qiziqish asosida ishtirok etishi kerak.Ilmiy rahbarning vazifasi ham tadqiqotni talaba o‘rniga bajarish emas, balki unga muammoni aniqlash, metodni tanlash, ilmiy manbalarni tahlil qilish va natijalarni talqin qilishda metodik yordam ko‘rsatishdan iborat. O‘zbekiston Respublikasida ham oliy pedagogik ta’limni takomillashtirish jarayonida talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi PF-73-son Farmonida pedagogika sohasida ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish pedagog kadrlar tayyorlash tizimining muhim vazifalaridan

biri sifatida belgilangan.[1] Mazkur normativ talab bo‘lajak pedagoglarning ilmiy izlanish olib borish, pedagogik muammolarni aniqlash, ularni ilmiy-metodik jihatdan tadqiq etish va tadqiqot natijalarini ta’lim amaliyotiga tatbiq etish kompetensiyalarini rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik zaruratini belgilaydi. Mazkur yo‘nalish 2026-yil 10-apreldagi PF-58-son Farmonda yanada rivojlantirilib, oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar tizimini “5T — ta’lim, tarbiya, tadqiqot, tijoratlashtirish va tizimli takomillashtirish” tamoyili asosida tashkil etish belgilangan. Farmonning ilm-fan salohiyatini oshirishga bag‘ishlangan 7-bandida ilmiy-tadqiqot loyihalarini tanlash, ekspertizadan o‘tkazish, moliyalashtirish hamda ilmiy kadrlar tayyorlash bilan bog‘liq talablar belgilangan.[2] Shu jihatdan talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish oliy ta’limning tadqiqotga yo‘naltirilgan yangi modeli doirasida muhim pedagogik vazifa sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa

Talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish zamonaviy oliy ta’limning muhim pedagogik vazifalaridan biridir. Ushbu kompetensiya ilmiy bilimlarni o‘zlashtirish bilan chegaralanmay, muammoni aniqlash, ilmiy savol qo‘yish, manbalarni tanqidiy tahlil qilish, tadqiqot metodlarini qo‘llash, empirik ma’lumotlarni tahlil qilish, ilmiy xulosa chiqarish va natijalarni kommunikatsiya qilish qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi. O‘zbekistonning normativ-huquqiy hujjatlarida ham oliy ta’limda ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish va ta’lim-fan-ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Brunerning spiral ta’lim konsepsiyasi talabaning tadqiqot subyekti sifatida shakllanishini nazariy jihatdan asoslash imkonini beradi. Zamonaviy empirik tadqiqotlar esa real tadqiqot loyihalarida ishtirok etish talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirishini ko‘rsatmoqda. Xitoyda 345 nafar magistr talabasi ishtirokida o‘tkazilgan tadqiqot esa talabalarning research literacy rivojida “avtonom motivatsiya va ilmiy rahbarning qo‘llab-quvvatlashi” muhim ekanligini ko‘rsatgan.[7] Demak, talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish uchun faqat “ilmiy tadqiqot metodlari” fanini o‘qitish yetarli emas. Tadqiqotga yo‘naltirilgan o‘quv muhiti, real ilmiy loyihalar, ilmiy mentorlik, mustaqil izlanish, motivatsiya va refleksiya yagona pedagogik tizim sifatida tashkil etilishi zarur.

Tavsiyalar

1. Oliy ta’lim dasturlarida ilmiy-tadqiqotchilik kompetensiyasini alohida ta’lim natijasi sifatida belgilash.

2. Talabalarni tadqiqot faoliyatiga 1-kursdan boshlab bosqichma-bosqich jalb qilish.

3. Har bir mutaxassislik fanida kamida bitta kichik tadqiqot loyihasini joriy etish.

4. Talabalarni universitet professor-o‘qituvchilarining real ilmiy loyihalariga jalb qilish.

5. Professor-o‘qituvchilarni talabalarning ilmiy mentori sifatida faoliyat yuritishga yo‘naltirish.

6. Ilmiy konferensiyalar, talabalar ilmiy to‘garaklari va ilmiy seminarlarni ta’lim jarayonining tarkibiy qismiga aylantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 28.04.2025 yildagi PF-73-sonli Farmoni. https://lex.uz/docs/-7499721

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar tizimini takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2026-yil 10-apreldagi PF-58-son Farmoni. https://lex.uz/uz/acts/-8129755

3. Bruner, J. S. “The Process of Education”. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1977.

4. Dewey J. Democracy and Education: An Introduction to the Philosophy of Education. – New York: The Macmillan Company, 1916.

5. UNESCO. “Recommendation concerning the Status of Higher-Education Teaching Personnel”. Paris: UNESCO, 1997. ЮНЕСКО

6. Thiem J., Preetz R., Haberstroh S. How research-based learning affects students’ self-rated research competences: evidence from a longitudinal study across disciplines // Studies in Higher Education. – 2023. – Vol. 48, No. 7. – P. 1039–1051. – DOI: 10.1080/03075079.2023.2181326. – Taylor & Francis Online.

7. Zhao, C., & Huang, F. “Understanding Chinese master students’ research literacy: The roles of autonomous motivation and controlled motivation”. Learning and Motivation, 86, 2024, Article 101984. DOI: 10.1016/j.lmot.2024.101984.